



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

Maxsus son.

Tahrir hay'ati:

Baxtiyor SAIDOV
Dilshod KENJAYEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Yorqinjon ODILOV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Valijon QODIROV
Baxtiyor DANIYAROV
Abdurahim NOSIROV
Tolib ENAZAROV
To'liqin SAYDALIYEV
Ravshan JOMONOV
Zulxumor MIRZAYEVA
Qo'choqbo YO'LDOSHEV
Tajixon SABITOVA
Salima JUMAYEVA
Nilufar NAMOZOVA
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinbosari)

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Yuliyana MUSURMANOVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
(71) 233-03-67

e-mail: til_adabiyoti@mail.uz
web-sayt: www.tilvaadabiyoti.uz

Jurnalidan ko'chirilgan maqolalar "Til va adabiyot" ta'limi dan olinadi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat ma'nosini nazorat qilmaydigan fikr-mulohazalari hisoblanishi mumkin.

Tahririyatga kelgan og'ayimlar taqdir qilmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.

Biomassazh. 2022. 25.06. da topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84/8. Sharti bosma tabaqi 8.0. shkalasi-gammatasi. 10, 11 kepl. »ECO TEXTILE PRODUCT» MCHJ bosma-xonalarida chop etildi. Manzil: Toshkent sh. Mirbod tum., Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Bayrutina — Adali 200 nusxa. Bahosi kelishilgan narda.

1991-yildan chiqqa boshlagan

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ЯЗЫК И ЛИТЕРАТУРЫ
LANGUAGE AND LITERATURE

TEACHING | SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

MUNDARIJA

G'afurjon Muxamedov. Toshkent viloyat chirchiq davlat pedagogika instituti — 5 yoshda	2
DOLZARB MASALA	
Rayxon Rasulova. Og'zaki va yozma nutq — komilik belgisi	
ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR	
Feruza Murodova. Maktab adabiyot darslarida hikoya janri o'qitish texnologiyasi	7
Sarvinov Berdiyeva. O'quvchilarda matn bilan ishlash va tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirishning pedagogik-psixologik omillari	8
Ruxsora Murodova. ona tili ta'limida nostondard testlardan foydalanish usullari	11
Tojixon Sabitova. Maqolalar badiyatiga doir	12
Sirdaryoxon O'tanova. Adabiy qahramonlar ruhiyati va tasvir musharakligi	14
TAHLIL	
Mohizhar No'monova. Hamid Olimjon lirikasida epitetning semantik-stilistik xususiyatlari	16
Gulmira Komilova. Tilshunoslikda lingvokulturologiya	18
Nilufar Aqulova. O'tkir Hoshimov ijodida obraz yaratish mahorati	20
Umid Shermatova. Taqqaslashirilgan adabiyot ta'limida binar metodik usullar	22
O'tkir Islomov, Gulzoda Bekmuratova. Madaniy nutq — behavo ma'naviy boylik	22
Adiba Davlatova. So'zning asl ma'nosi — shoirning asl dardi	24
Nodira Xoligova, Humoyun Umaraliyev. Komil inson masalasi — jamiyat masalasi	28
Iroda Xoligulova. Hamza Hakimzoda niyozining dramalarida monologik nutqning o'rni	30
Nizomiddin Bozorov, Ulug'ov Chorfiyeva. Dramatik asarlarda makon, zamon va badiiy tilning komparativ qirralari	32
Bahorov Eshmanova. Ingliz va o'zbek maqollarning kognitiv-qiyosiy tahlili	34
Ziyoda Usmonova. Ta'lim tizimiga oid kutuzatish, tahlillar va takliflar	36
Gulshodaxon Tojiyoyeva. Abdulla Qodiriy va zamondoshlari ijodida ayollar obrazining musharakat jihatlari	38
Emina Achilova. O'tkir Hoshimovning "urushning so'ngi qurboni" hikoyasida psixologik tasvir	40
Musajjan Tadjibayev. Germaniyatda psixologik talqin muammolari	42
TADQIQOT	
Hoshimjon Quchqorov. Tarjimon, tarjima va matn	44
Nafisa Rahmanova. Nizomiy va Navoiyning ota-o'g'il munosabatlari haqidagi qarashlari	46
Laylo Xasanova. Navoiy lirikasida obrazni ifoda etishda ritm va mazmun uyg'unligi	49
Arofotoy Muydinova. O'zbek milliy uyg'unlash adabiyoti vakillari ijodida muvashshah san'ati	51
Mohgul Mavlonova. "Farhod va Shirin" dostonida shopur obrazi talqini	53
Nizomiddin Bozorov, Mohira Hayitova. Samimiyatning teran badiiy ifodasi	55
Ra'no Xayrullayeva. O'quvchilar nutq madaniyatini takomillashtirish, nutqini o'rnatish yo'llari va vazifalari	58
Nafisa Muratova. Maktabda tarixiy so'zlar mavzusini o'rnatishning o'ziga xos usullari	60
Abdushukur Shofqorov. "O'zbek tilining to'liq lug'ati" dagi dialektal so'zlar	63
Rahmatilla Norbekov. Mung'lik qalbar kuchisi	65
KICHIK TADQIQOT	
Qodirjon Mo'yidinov. Sud nutqi lektsiklasidagi o'zlashtirma so'zlar	67
Shahnoza Azimjonova. Akademik Naim Karimovning ijodkor portretini tarixiy jarayon zaminida o'rnatish mahorati	69
Xosiyat Abdugahhorova. Mustaqil so'z turkumlarida antisemik munosabatlarning ifodalaniishi	70
Dildora Yorbulova. Hamza hakimizda niyozining ashularida xotin-qizlar mavzusi	72
Aziza Avezova. Alisher Navoiy "turkiylar choseri" mi	73
Nodira Xoligova. Millat va jamiyatning badiiy in'ikosi	76
Hikmat Hikmatov. Adabiyot darsida yangi — xamsa — metodidan foydalanish usullari	78
Xumoyun Umaraliyev. Hamza Hakimzoda Niyozining she'riyatida er va bilim talqini	80

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

jurnali

ISSN 1691-2689

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining Filologiya va Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashridir.

MILLAT VA JAMIYATNING BADIY IN'IKOSI

(Hamza Harimzoda Niyoziyning "Yangi saodat" asari misolida)

XIX asr oxiri – XX asr boshlari Turkiston hayotida mislsiz o'zgarishlar voqe' bo'ldi. Jaholat, boshqaruvdagi boshboshdoqlik, ilm-ma'rifatning qadrsizlanishi, ijtimoiy-maishiy tanazzul, aloloqibat, milliy mahdudlik, mustamlakachilikka yo'l ochdi. Ming yillardan buyon mavjud bo'lgan qadriyatlar, ajdodlarning buyuk merosi, dinu diyonat toptaldi. Bu kabi davomli tazyiqlar, so'z va vijdon erkinligining bo'g'irishi tabiiy ravishda vatanparvar, ma'rifatparvarlarning maydonga kelishiga zamin hozirladi.

Dastlab maorifni yangilash, ta'lim sifatini oshirish, eski o'qitish tizimidan mutlaqo voz kechishdan boshlangan harakat keyinchalik, milliy matbuot, milliy adabiyot, milliy teatr kabi o'nab yangi sohalarga qadar o'sib bordi. Natijada milliy uyg'onish davrining asosiy belgilari jamiyatning turli jabhalariga keng yoyildi. Millat taraqqiyotining asosiy omili sifatida yangi usuldagi milliy maktablarga asos solish orqali kelajakni mutaraqqiy etgan davlatlar qatoriga qo'shish maslasi ko'plab ziyolilarni birlashtirdi. Jadidlarning har bir faoliyati asosida yurt ravnaqi, erki, uyg'ongan millat orzusi turar edi. Shuning uchun ham ularning har biri ham maktablar ochish, ham yangi darsliklar yozish, ham milliy matbuotda maqolalar bilan chiqish, ham badiiy adabiyot bilan shug'ullanish kabi qiyin vazifalarni parallel olib bordi. Adabiyotshunos U.Jo'raqulov ta'kidlaganidek, "... yangi estetikaning shakllanishi tom ma'noda dialektik qonuniyat asosida bo'ldi".

Ana shunday ijodkorlardan biri Hamza Hakimzoda Niyoziydir. U nafaqat milliy maktablari, balki keng ijodiy faoliyati bilan millatga xizmat qildi. She'rleri, dramalari, nasriy asarlari bilan yangi o'zbek adabiyoti xazinasini boyitishdagi hisssasi kattadir.

«Al-islohot» jurnalining 1915-yil 12-sonida yangi nashr etilgan asarlar to'g'risida xabar-maqola e'lon qilingan bo'lib, unda Hamza, Fitrat kabi adiblar nomlari ham qayd etilgan. Jurnal idorasi «Yangi saodatga» munosabat bildirib, bunday yozadi: "Xalqni o'quv-yozuv tarafiga ta'rif qilmak uchun hozirgacha Turkiston viloyatida alxusus Turkiston shevasinda buningdek ta'sirli milliy ro'mon nashr o'linmamish desak mubolag'a o'lmasa kerak".

Yuqorida ta'kidlanganidek, millat taraqqiyotining omillaridan biri ma'rifat bo'lar ekan, u dastlab oilalarda mukammal bo'lishi zarur. Bu kabi qarashlar Fitratning "Rahbari najot", "Oila", Said Ahrorining "Oila kitobi" (Xonim-qizlarimizga tortiq) kabi risolalarida to'laqonli ifodalanib, "Jadid ziyollarning tarixiy-ijtimoiy voqealar natijasida dunyoqarashida, ruhiyatida sodir bo'lgan o'zgarishlar islohotchilik g'oyalari bilan erkinlik, moddiy va ma'naviy barkamollikka erishish, mukammal jamiyat qurish, huquqiy tenglikka asoslangan fuqaroviy davlat

barpo etishdek yuksak ijtimoiy-estetik ideallar tomon o'sib bordi". Shunday ekan, bu kabi g'oyalari Hamza ijodiga ham begona emas. Uning qator dramalari, kichik epik asarlarida xotin-qizlar ma'rifatiga targ'ib etilgan o'rnlari ko'plab uchraydi:

*O'qub tahsili ilm ayla, maorif sharbatini yutgil,
Tilini jahldan qutqor, g'ami millat bila o'tgil.*

Asar avvalida keltirilgan epigraf bizga yo'nalish beradi, kalit vazifasini o'taydi. Ya'ni "tahsili ilm" "millat g'ami"ga eng yaxshi chora ekanligiga ishora qilinadi. Qolaversa, muallifning xalq orasida mashhur bo'lgan ayrim ishqi, hajviy asarlarga munosabati ham keltirilgan bo'lib, axloqni tarbiyalaydigan yangi qiroat kitobi degan e'tirof ham yuqoridagi epigrafga nihoyatda hamohangdir.

Bosh qahramon Olimjon sabru matonatda tengsiz, madrasa ta'limini olgan yigit, onasi Maryam solih ayol. Uning otasi Abduqahhor savdogar G'ozoi boyvachchaning o'g'li bo'lib, katta meros sohibi edi. Lekin Abduqahhor o'qimagani, xat-savodsiz bo'lgani uchunmi qimorbozlikka berilib, o'z oilasini xonavayron qiladi. Buning jabrini o'zi va ikki farzandi, xotini va onasi tortadi. Olimjonning baxtiga atrofida uchragan olijanon insonlar uning ilm olishiga ko'mak berishadi. Olimjon o'z ismi-ga monand yigit bo'lib voyaga yetadi. Yozuvchi e'tirof etishicha, u: "Yoshi 18 yoshlarga to'lgan bo'lsa ham o'z ijti-hod va g'ayrati orqasida 40-50 yoshdagi kishilardan ham ortuqroq darajalarga komil aql va asoslik fikr va marhamatti vijdonga molik bo'lgan farosatlik" edi.

Bizning nazari-mizda, Hamzaning "Yangi saodat"da yarq etib ko'rinib turgan ifodadan tashqari, yana qandaydir bayonlar bordek. Ya'ni, bosh qahramon aslida Olimjon, lekin bizningcha, uning onasi Maryam obrazini desak yangilishmaymiz. Negaki, savodli, o'qimishli Maryamning ilgama rag'batini bo'lmaganida, Olimjon taqdirida muhim burilish yasanagan jadid muallimi bilan tanishmas, natija yozuvchi ko'rsatganidek, yetuk shaxs bo'lib kamol topmas edi. Demak, oilaning farog'ati, farzandlarning saodati uchun ona ham mas'ul. Maryam johila bo'lganida oilaning holi nima kechardi? Oiti yoshli Olimjon, uch yoshli Xadichaning taqdiri-chi? Demak, Hamza ilk bor hayotiy voqealik yo'rig'ini belgilay oladigan ayollar obrazini nasrga olib kirdi. Jadid muallimi qo'lida tahsil olgan Olimjon, tabiiyki, orzusiga ilm-ma'rifat orqali erishadi. "Har bir asar yozuvchining badiiy niyati asosiga quriladi. Belgilangan maqsad yaratilayotgan asarning shakli va mazmunini tayin etishda muhim o'rin tutadi. Badiiylikning mukammalligini anglatuvchi mezonlardan biri – mazmun va shakl birligidan tashqari har ikkisini ijodkor ideali bilan nurlangan uyg'unligi ham mavjud".

ХАМЗА

ҲАҚИМЗОДА ЛИМЗИЙ

ЯНГИ САОДАТ
(миллий роман)

Abdurahmonboy ismli savdogar Olimjonni o'z qaramog'iga oladi. Qiziga uylantiradi. O'limi oldidan bor bisotini Olimjonga vasiyat qilib qoldiradi. U barcha qiyinchiliklarni yengib, "otasi yo'q" degan ta'na-dashnomni yengib, onasi Maryam, singlisi Hadicha va buvisi Ruzvonning ishonchini oqlab, uylanish pallasiga kelganda bularni taqdir hukmiga tashlab ketgan otasini izlab topishni maqsad qiladi. Olimjon davini topadi, uni uyga olib keladi.

Olimjon Qo'qondan Toshkentga 16 soatlik yo'l bosib, bir paytlar g'arib holda oila, bola-chaqasini tashlab ketgan otasi Abdulqahhorni izlab keladi. Adib tasvirlashicha, "... besh-o'n dona yamoq soladurg'on eski kafsh-mahsilalar bila bigiz, igna, if, mo'mlarni olub chiqub, oftobginada bir parcha eski sholchani tagiga solub o'ltirub, bir oz yamoq tikay degan bechora Abdulqahhorni bu kecha uyqusida tushiga kirgan Olimjon, Hadicha, mungluk Ruzvon bilan Maryamni hafalik hollari, Olimjon bila Hadicha bo'yiniga sorlub: "Dadajon, bizni tashlab, qaysi tarafda yurasiz, sog'inmaysizmi? Biror marotaba bizdan xabar olmaysizmi? Dadajon, rahmingiz kel-

maydimi? Biz sizni sog'inub, yuraklarimiz ezildi-ku, jon dadajon", - deb qilgan nolalari yodiga tushub, butun holi o'zgarub, qo'lidagi igna, iflari tushub, jig'ar-bag'ri ezilub, bir tarafdin, bang, ko'knor, ikkinchi tarafdin, furqat va g'urbat ta'siri bilan sarg'argan yuzlarig'a dog'i vatan va farzand alami va sitamidan tirqirab chiqgan g'amlik ko'zyoshlari tomchilab, yo'lg'a termulub, hayron va parishonhollik bir hol va xayollarga cho'mulub turmakda edi". Abdulqahhor mana shunday alfozda o'tirar edi. Uning yuragi iztirobda qolgan, qalbi g'am-anduhga to'lgan edi.

Hamza ushbu qahramon ichki kechinmalari orqali asarning estetik ta'sir kuchiga urg'u bergan bo'lsa, ikkinchidan, Abdulqahorning ruhiy poklanish jarayoni ni ko'rsatmochi bo'ladi. "Demak, Abdulqahhor «johil ot»gina emas, o'z qilmishlariga tadbalar qilguvchi samimiy inson, solih banda hamdir... «Yangi saodat»da gap qalbn g'uborlardan tozalash haqida boradi", deydi olim Islomjon Yoqubov.

Asarda yozuvchining maslagini ochish uchun jadid muallimi obrazi tanlangan. Jadid maktablariga va muallimlarga tazyiq kuchaygan bir sharoitda bu obrazning yaratilishi Hamzaning orzusini anglash imkonini beradi. Qolaversa, bu o'rinda ma'rifat yangicha qarashlar asosida singdiriladigan jadid maktablaridagi ta'lim boshqa o'quv muassasasiga nisbatan samaraliroq, degan ta'kid ham yo'q emas. Demak, Hamza islohotparvarlar yo'lida ekan, uning ideali ham jadid muallimi yoki yangicha fikrlaydigan kishilardan iboratligi asoslidir. Aslida Maryam va jadid muallimi obrazlari muallif g'oyasiga xizmat qilgan. Olimjon esa g'oyaning samarasi - kutilgan natija edi. "Amin bo'lmog'imiz kerakdurkim, bizlar to'erkak va qiz bolalarimizni birgalikda tarbiya etmaguncha bizlardan kelajakda mas'ud oilalar yetishmas. Bizlar hech vaqt g'oyai a'molimiz bo'lg'on chin baxt va saodatga, taraqqiy va tamaddung'a yetolmasmiz".¹

Shuningdek, adib Maryamni to'laqonli ayol sifatida chiroyli tasvirlaydi. Garchi uning portreti chizilgan bo'lmasa-da, eri Abdulqahhor kelishidan oldin barcha ginalarni unutib, o'ziga oro berishi fikrimizga misol bo'ladi.

Hamzaning «Uchrashuv» (To'rt ishq) asari ham jadid romanchiligidagi ilk tajribalardan. Lekin «Befarздand Ochilidiboy» singari bu roman ham to'liq yetib kelmagan. Uning faqat «Uchrashuv» bobidan parchalar saqlanib qolgan, xolos. Shirin, Yusuf, Roziqboy, Abror kabi obrazlar orqali turmushning turli qirralari turlicha rakurslarda namoyon bo'ladi. Asarda ilm-ma'rifat emas, balki maishiy masalalar qalangga olingan. Lekin muallif Salima, Shirin kabi obrazlar bayonida xotin-qizlardagi ibo, hayo hamda oilaparvarlik xususiyatlariga yuqori baho beradi, bu orqali esa demak, mukammal turmush uchun ayol ham barkamol bo'lmog'i zarur, deb hisoblaydi.

1. Журақуллов У. Худудсиз жилав. — Т.: Фан, 2006. — Б.77.

2. Давлатова А.Р. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиётда эстетик идеал масаласи. Ф.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. — Т. 2011. — Б.95

3. Саримсоқов Б. Адабиётда шакл ва мазмун муносабатларининг айрим муаммолари // ЎТА, 1997. — №6. — Б.11.

4. Ёқубов И. Ўзбек романи тадриқи. — Т.: Фан ва технология, 2006. Б. 19.

5. "Меҳнаткашлар товуши". 1918, 9 июл